



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 16-mart, shanba,
33 (23.910)-son

**KUN
HIKMATI**

Inson
uchun
baxtsizlikdan
katta
saboq yo'q

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

↓ **Prezident farmoniga ko'ra**

Rahbarlarning faoliyati baholanadi

“Qoniqarsiz”larining
lavozimiga loyiqligi
ko'rib chiqiladi

Prezident Sh.Mirziyoyev
“Respublika va mahalliy ijro etuv-
chi hokimiyat organlari hamda
xo'jalik birlashmalari faoliyati
samaradorligini baholash tizimini
takomillashtirish chora-tadbirlari
to'g'risida”gi farmonni imzoladi.

Unga muvofiq, endi respublika
ijro etuvchi hokimiyat organlari
va xo'jalik birlashmalari rahbarlari
va ularning o'rinbosarlari faoliya-
tining eng muhim samaradorlik
ko'rsatkichlari (KRI) hisoblanadi.
Ularga erishish bo'yicha “yo'l
xaritalari” hamda hududlarda
amalga oshiriladigan chora-tad-
birlar dasturi hukumat tomonidan
tasdiqlanadi.

Hujjatga ko'ra,
- samaradorlik ko'rsatkichlari
bajarilishi to'g'risidagi ma'lumot har
chorakda “samaradorlik.uz” elek-
tron platformasiga kiritiladi hamda
unda rahbarlar va ularning o'rinbo-
sarlari faoliyatining samaradorligi
reytingi shakllanadi;

- belgilanadigan salmoq o'lchovi
yig'indisidan kelib chiqqan sama-
radorlik ko'rsatkichi 70 foizdan
kam bo'lsa – “qoniqarsiz”, 70
foizdan 85 foizgacha – “qoniqarli”,
85 foizdan 100 foizgacha – “yax-
shi” hamda 100 foiz va undan
yuqori bo'lganda – “a'lo” deb
baholanadi.

Chorak yakuni bo'yicha sama-
radorlik ko'rsatkichlariga erishish
natijalari “qoniqarsiz” deb baholan-
gan rahbarlar va ularning o'rinbo-
sarlari rag'batlantirish to'lovlari
kelgusi 3 oy uchun to'xtatiladi va
ularga nisbatan intizomiy ta'sir
choralarini qo'llash masalasi ko'rib
chiqiladi. Yil yakuni bo'yicha “qo-
niqarsiz” ko'rsatkichi o'zgarmasa,
tegishli rahbarlar va ularning o'rin-
bosarlari egallab turgan lavozimiga
loyiqligi masalasi ko'rib chiqiladi.

Mazkur tartib davlat ulushi 50
foizdan ortiq bo'lgan yirik xo'jalik
jamiyatlarida ham amal qiladi.

Kishi ilmi bilan obro' topadi

**Bolaligim quvnoq o'tgan, deya
olmayman. Nogiron bo'lganligim
uchun do'stlarim kam edi. Shuning
uchun vaqtimni kitob o'qishga
sarflardim. Kitobga bo'lgan mehmrim
meni elda aziz qildi, doktorlik ilmiy
darajasini olishimga sabab bo'ldi.**

Oilada sakkiz farzandimiz, ota-onam bar-
chamizning ziyoli bo'lishimizga e'tibor berdi.
Ayniqsa, onam mendan xavotir olardi, qizim
qishloqda yashashga qiynaladi, deb kuyunardi.
Onamning qistovi bilan aniq fanlarga qiziqdim.

2005-yil Samarqand davlat universiteti-
ning amaliy matematika yo'nalishini tugatib,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filialida ochilgan magistraturaga
o'qishga kirdim. 2009-yil O'zbekiston Fanlar
akademiyasining Matematika va informatika
institutiga aspiranturaga qabul qilindim. Aspi-
rantura davridayoq ilmiy ishimni himoya qildim.
2012-yilda texnika fanlari nomzodi, 2018-yilda
texnika fanlari doktori ilmiy darajasini oldim.



Bundan tashqari, Raqamli texnologiyalar
va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot
instituti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi-
ni mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy
tadqiqot universiteti, Toshkent axborot tex-
nologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy dara-
jalar beruvchi ilmiy kengashlar a'zosisman.

Bugungi kunda filial talabalariga axborot
tizimlarini loyihalash menejmenti, geoaxborot

tizimlar fanlaridan soha korxonalariga oid
ma'ruzalar o'qiyman. Ushbu fanlardan o'quv
qo'llanmalar chop etganman.

Shuningdek, tadqiqotchi shogirdlarim
bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda-
man. Asosan veterinariya va qurilish sohalarini
avtomatlashtirish va ularga sun'iy intellekt tex-
nologiyalarini qo'llagan holda samarali natijalar-
ga erishish ustida ishlayapmiz. Har bir ilmiy ish
qiladigan kishida sabr bo'lishi va maqsadni aniq
qo'yishni bilishi shart, deb hisoblayman.

Pedagogik faoliyatim davomida imkoniya-
ti cheklangan yoshlar bilan ham ishlayman,
ularga kuch-g'ayrat, ertangi kuniga ishonch
berishga harakat qilaman.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti tomonidan “Shuhrat” medali bilan
taqdirlandim. Ochig'i, kamtarona mehnatlarim
bu darajada baholanishini kutmagan edim. Bu
ishonch meni yoshlarga ta'lim-tarbiya berish-
da yanada shijoat bilan ishlashga undaydi.

Xolida PRIMOVA,
TATU Samarqand filiali axborot
texnologiyalari kafedrası professori.

↓ **E'tirof**

«TASHABBUSLI BUDJET»dan TEZ TIBBIY YORDAM binosi



**Endilikda Kattaqo'rg'on tumanida tez tibbiy
yordam xizmati stansiyasi xodimlari “Ta-
shabbusli budjet” tanlovi orqali yutib olingan,
bir milliard 200 million so'm mablag' evaziga
qurilgan yangi binoda faoliyat olib borishadi.**

- Bungacha moslashtirilgan, deyarli sharoit
bo'lmagan binoda faoliyat ko'rsatardik, - deydi stan-
siya bo'limi boshlig'i Ahad Tursunov. - Bu xodim-

larning xizmat faoliyatini olib borishida noqulaylik
tug'dirib, bemorlarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish
imkonini bermasdi. Ikki qavatli 16 ta xonadan iborat
zamonaviy, barcha qulayliklar va shart-sharoitlarga
ega yangi bino tibbiy xizmat ko'rsatish sifatiga ijobiy
ta'sir qiladi. Aholi chaqiruvlariga tezkorlik bilan ye-
tib borishi uchun tez tibbiy yordam stansiyamizning
tuman bo'yicha 17 ta shaxobchasi faoliyat ko'rsatadi.
Bundan tashqari o'tgan yillar davomida tizimdagi qa-
tor o'zgarishlarga guvoh bo'layapmiz. Bu o'zgarishlar

dori-darmon ta'minotidan tortib, zamonaviy avto-
mobillar ajratilishi, bemor uyiga vaqtida yetib borish
uchun yo'llarning tartibga keltirilishi kabi ijobiy yangi-
liklarda ko'rinadi.

Tuman tez tibbiy yordam xizmati stansiyasida 23 ta
brigada mavjud bo'lib, 295 mingga yaqin aholiga xizmat
ko'rsatadi. Stansiyada 81 nafar oliy toifali shifokor,
142 nafar o'rta tibbiyot xodimi va 113 nafar haydovchi
faoliyat yuritib, 6 ta zamonaviy “Folkswagen” va 17 ta
“Damas” avtomobili xizmat olib boradi.

TAYINLOV

Rabbimov Abror Mehridin o'g'li -
viloyat fermer, dehqon xo'jaligi va
tomorqa yer egalari kengashi raisi
vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.
Tayinlovga qadar A.Rabbimov
Ishtixon tumani hokimining qishloq
va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha
o'rinbosari lavozimida ishlagan.



YURT OBODLIGIGA



HISSA QO'SHING!

Aziz samarqandliklar, hurmatli mahalla raislari!

Ayni kunlarda yurtimizga Navro'z shukhi bilan birga muborak
Ramazon oyi ham kirib keldi.

Shu kunlarda xalqimiz hasharlar uyushtirib, tabiat va insonning
o'zaro uyg'unligini ta'minlashga, ko'plab xayrli ishlarni tashkil etish-
ga bel bog'lagan.

Bu qadriyatlarining tarbiyaviy ahamiyatini unutmasligimiz kerak!
Chunki toza-ozoda xonadonga, mahallaga, yurtga bayramlar yara-
shadi.

Sizlarni shu yilning 16-, 17-, 18-mart kunlari viloyatimizda keng
ko'lami obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga
oshirish maqsadida **ommaviy hasharga** chorlaymiz.

Hasharni yuqori saviyada tashkil etish uchun mahalla faollari,
tashabbuskor tadbirkorlar va homiylar, nuroniylar, hayotiy tajribaga
ega fuqarolarni keng jalb etgan holda xonadonlarni va ko'chalar-
ni obodonlashtiraylik. Tomorqalarni tartibga keltirib, ekin ekaylik,
daraxtlarni parvarishlab, ariqlarni, qabristonlar va ularning atrofini
tozalab, ehtiyojmand oilalarning xonadonlarini ta'mirlaylik.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi.

Ma'lumotga ko'ra, 2023-yilda viloyatimizdan Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalariga 125 mingdan ortiq murojaat tushgan. Bu 2022-yilga nisbatan 18 foizga kam. Biroq murojaatlar mazmunini o'rganar ekansiz, unda takroriylarining ulushi ortganini ko'rish mumkin. Buning sababi nimada? Biz ayni savolga javob izladik.

TAKRORIY MUROJAATLAR

Bu nimadan darak, mas'ullar ishlamayotganidanmi, yoki..?

Murojaatlar tahlili boshqa faktlarni ham ochiqleydi. Masalan, o'tgan yili eng ko'p murojaatlar sud qarorlarining ijrosini ta'minlash (11 mingdan ortiq) borasida bo'lgan. Undan keyingi o'rinlarda davlat pensiya ta'minoti va ijtimoiy himoya, huquqbuzarliklar, elektr energiyasi va gaz ta'minoti masalalari turibdi. Hududlar kesimida olib qaraydigan bo'lsak, eng ko'p - 20 mingga yaqin murojaat Samarqand shahridan bo'lgan. Aholisining soni bo'yicha Samarqand shahriga tenglashayozgan Urgut tumanida bundan ikki marotaba kam - 10330 ta murojaat qayd etilgan.

Mavzuga qaytadigan bo'lsak, o'tgan yili murojaatlarning 19 mingdan ortig'i takroriy bo'lgan. Tabiiyki, Samarqand shahri 2788 ta takroriy murojaat bilan birinchi o'ringda. Ikkinchi o'ringdagi Past Darg'om tumanining ko'rsatkichi ham past emas - 2120 ta. Ijro muddati buzilgan murojaatlar masalasida yana shu ikki hudud liderlik qilmoqda.

— Takroriy murojaatlar soni bo'yicha respublikada ham birinchi o'rindamiz, - deydi Prezidentning viloyatdagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi Shoir Sultonova. — Muammoni tahlil qildik. Unga ko'ra, takrorlanadigan murojaatlar sababini 3 guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, mas'ullarning ijro muddatini kechiktirishidir. Misol uchun, o'tgan yili bu 11541 ta murojaat ijrosida kuzatilgan. O'rganish davomida shu narsa aniq bo'ldiki, ayrim mas'ullar murojaatlarni soxta ma'lumotnomalar bilan yopishga harakat qilgan. Oqibatda muammosi hal bo'lmagan fuqarolar qayta murojaat qilishga majbur bo'lgan. Xuddi shunday oqibatni keltirib chiqaruvchi ikkinchi omil, bu tizimli muammolar, xususan, elektr, gaz va suv ta'minotidagi uzulishlar hisoblanadi. Har ikki holatda ham mas'ullarning fuqarolar bilan ishlash darajasini ijobiy baholab bo'lmaydi. Bu borada mutasaddi tashkilot rahbarlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga taqdimnomalar kiritib kelyapmiz.

Mutaxassising bildirishicha, hududda boqimandalik kayfiyatidagi fuqarolar soni ham ortib bormoqda. Qabulxonaning o'zida 60 nafar samarqandlik "doimiy" murojaatchilarning ro'yxati shakllantirilgan. Ma'lumotga ko'ra, ular tomonidan olinmagan moddiy va boshqa ijtimoiy ko'mak turlari qolmagan. Shunga qaramay, ular murojaatlar yo'llashdan ko'xtagani yo'q.

Misol uchun, o'tgan yillarda nurobodlik shunday fuqaroning murojaatlari asosida uyi ta'mirlangan, oila a'zolari yo'llanma asosida salomatligi-

ni tiklagan, o'ziga chorvachilik bilan shug'ullanishi uchun imtiyozli kredit ajratilgan. Bundan tashqari, har bir bayram va muhim sanalarda mahalla va tuman mas'ullari uning xonadoniga oziq-ovqat va sovg'a-salomlar yetkazib turgan. Ish topib berilsa ham ishlamaydigan, boqimandalikni kasbga aylantirgan bu fuqaro navbatdagi murojaatida kreditini yopib berishni talab qilaypti. Bundaylar viloyatimizda yetarlicha topiladi.

Masalaning yana bir tomoni e'tiborimizni tortdi. Gap shundaki, shikoyat qilsa, ishi osonroq bitishiga o'rgangan bu shaxslarning aksariyat murojaatlari asossiz. Shunday bo'lsa-da, o'tgan yillarda ularga hududiy hokimliklar, turli mas'ul idoralar tomonidan goh davlat budjetidan, goh homiylarni jalb qilish yo'li bilan moddiy yordam berib kelindi. Bundan maqsad ularning "og'zi"ni yopish bo'lgani hech kimga sir emas. Buni qarangki, shu "mehribonchilik" yangi muammo - boqimandalar guruhlari shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

O'rganilayotgan davrda 9507 nafar fuqaro 3 martadan 10 martagacha, 740 nafari 10 martadan 25 martagacha, 147 nafari 25 martadan ko'p murojaat yo'llagan. — Darhaqiqat, ko'p hollarda murojaatchining muammosini faqat moddiy yordam bilan hal qilib bo'lmaydi, - deydi Sh.Sultonova. — Boqimandalar uchun esa bu ayni muddao. Vaziyat shu darajaga yetib keldiki, aksariyat murojaatchilar davlat ularga hamma narsani tayyorlab berishi kerak degan fikrda qotib qolgan, tushuntirish, targ'ibot ishlari ham samara bermayapti. Mas'ullar ular bilan ovora bo'layotgan bir vaqtda haqiqiy muhtojlar e'tibordan chetda qolib ketyapti. Joylarda aholi bilan muloqot qilishda guvohi bo'ldik, haqiqiy ehtiyojmandlar kimdandir yordam so'rashga iymnadi, dardini el qilishga uyaladi. Shu bois bugun mahalla institutini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilyapti. "Mahalla yettilligi" har bir xonadonga kirishi va undagi vaziyat, muammolar, fuqarolarning kayfiyatini o'rganib, asi muhtojlarni ajratib olishi kerak. Shunda hukumat berayotgan ko'mak o'z manziliga yetib boradi.

Asqar BAROTOV.

Investitsiya jalb qilish va to'g'ri yo'naltirishda nimalar muhim?

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu sababli hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo'naltirishda ilmiy asoslangan holda ish tutish, kapital sarmoyalarning qaytishini jadallashtirishga e'tibor qaratish lozim. Investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samardorlik jihatlariga hamda investitsiya mablag'larining tarmoq va soha taqsimotiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim.

Bunda ayniqsa, xorijiy sarmoyani jalb etish, uni iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud. Jumladan, ulush qo'shib qatnashish orqali qo'shma korxona, mol-mulki to'liq xorijiy investorga tegishli bo'lgan xorijiy korxona, yirik xorijiy kompaniya va firmalarning shu'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish, konsesiya va lizing shartnomalari tuzish, tenderlar e'lon qilish, erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish, moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish mumkin.

Erkin iqtisodiy zona mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladi. Bu hududda yuridik shaxslar va fuqarolar (jismoniy shaxslar) xo'jalik, moliyaviy va boshqa faoliyat bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasno. Erkin iqtisodiy zonalarida alohida bojxona, valyuta, soliq tartiboti, shuningdek, fuqarolar kirishi, chiqishi va bu yerda bo'lishining, mehnat munosabatlari, moliya-kredit faoliyatining alohida tartiboti hamda investitsiyalarni jalb etishga, tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga va zonani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan boshqacha tartibot o'rnatilishi mumkin. Erkin iqtisodiy zonadagi korxonalar, muassasalar



va tashkilotlarda ishlash uchun eng avvalo, mahalliy mehnat resurslari jalb etiladi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa mintaqalarida yashovchi shaxslar va chet el fuqarolari ham jalb etilishi mumkin. Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarida mahalliy va xorijiy kredit institutlarining moliyaviy mablag'laridan samarali foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida, muayyan qonuniyatlarga asoslanib, iqtisodiyotga moliyaviy resurslarni yo'naltirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bunday tadbirlar oldindan bilish, bashoratlash kabi usullarni hamda mazkur jarayonlarning jamiyat istiqbolida qanday natijaga olib kelishini avvaldan namoyon etadigan uslubiyotini o'z ichiga olgan yaxlit dastur sifatida o'rganishga doir vazifalarni kun tartibiga qo'yadi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat

beriladi. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlaydi. Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlari amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettiradi. Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Investitsiya muhiting holatini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi.

Hududlarda investitsiya resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish, korxona va firmalarning nafaqat investitsion faoliyatining, balki eng muhim moliyaviy strategiyasining unsuri ham hisoblanadi. U belgilangan hajmdagi investitsiya faoliyatini uzluksiz ravishda rag'batlantirishni ta'minlaydi hamda shaxsiy moliyaviy vositalardan eng samaralisidan foydalanadi va uzoq muddatli davrda istiqbolida hududdagi korxona va firmalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Investitsiyalarni boshqarish uchun ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlash hozirgi davr talabi. Ushbu talabdan kelib chiqib, Samarqand iqtisodiyot va servis institutida 2023/2024-o'quv yilida investitsion loyihalarga xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish bakalavriat ta'lim yo'nalishi, "Investitsiyalarni boshqarish" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi ochildi.

A.BEKTEMIROV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
kafedra mudiri, professor.

Ko'chamiz qachon tartibga tushadi?

Samarqand shahridagi So'lim qo'rg'oni Chilquduq mahallasining 7 kilometrlik ko'cha va yo'llari 2019-yil - "Obod mahalla" yili dasturi asosida joriy ta'mirdan chiqarilgan edi. Asfalt yotqizish ishlari tugagan vaqtida yo'l ostidagi suv oqova tizimlarini ta'mirlash ishlari boshlandi. Kanalizatsiya quvurlari yotqizib bo'linganda esa ularning o'rni asfalt qilinmasdan qolib ketdi. Shuningdek, suv oqova quduqlari ham yer sathidan pastda qoldirildi.



Mana endi to'rt yildirki har yog'ingarchilik vaqtida yo'lning past-baland qismlarida ko'lmaklar to'planib qoladi. Chunki suv

oqova tizimlari noto'g'ri o'rnatilgan. To'plangan ko'lmak suvlari chiqib ketadigan yo'l yo'q. Bu esa nafaqat mashinalarga balki piyoda-

Bugungi ahvol

larga ham noqulaylik tug'dirmoqda. Chunki yo'l yoqasida piyodalar yo'laklari ham qurilmasdan qoldi. Ayniqsa, yosh bolalarning maktabga borishida, aholining kundalik yumushlari bilan bozor-o'charga qatnashida, yo'lovchi mashinalarining o'tishlarida qiyinchiliklar paydo bo'lyapti. O'nlab kanalizatsiya quvurlarining qopqoqlari o'g'irlab ketilganligi sababli chuqurga tushib, ta'mirtalab bo'layotgan mashinalarning sanog'i yo'q.

Qo'rg'on aholisi bir necha bor Samarqand shahar va tuman hokimliklariga, yo'lni ta'mirlagan Samarqand tumani avtomobil yo'llari boshqarmasiga murojaat qilishdi, biroq foydasi bo'lmayapti. Hatto viloyat hokimining sayyor qabullarida ham bo'ldik. E.Turdimov mutasaddilarga kerakli topshiriqlar bergan bo'lsa-da, u yana amalga oshmay qolyapti. Yog'in-garchilik kunlari biz kattalar bu yo'lda o'tishda chalamiz, ammo bolalarimiz qiynalishmoqda. Bizga yordam bering, mutasaddilar!

Sharof MA'RUPOV,
So'lim qo'rg'oni,
Chilquduq mahallasi.

Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi viloyat hududiy bo'linmasida shu mavzuda davra suhbatini o'tdi.

"MAHALLA-jamoatchilik nazoratining faol subyekti"



Unda viloyatimizdagi nodavlat notijorat tashkilotlari, o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, ekspert va OAV vakillari ishtirok etdi.

- To'g'ri, keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati har tomonlama jonlandi, - dedi Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi viloyat hududiy bo'linmasi bosh mutaxassisi F.Rahmatov. — Biroq biz bir joyda to'xtab qolmasligimiz kerak. Shu bois tadbirda asosiy e'tibor yutuqlarimizga emas, balki faoliyatimizdagi muammo va kamchiliklarga qaratildi. Boshqa tashkilotlar faoliyatiga baho berishdan oldin, o'zimizga baho berishni bilishimiz kerak. Tadbirda ishtirokchilar ekspertlar tomonidan sohadagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan bir qator takliflar bilan tanishib, istiqboldagi vazifalarni belgilab olishdi.

Ikki kunlik harbiy hayot

Viloyatimizda harbiy vatanparvarlik o'quv-yig'ini o'tkazilmoqda

Prezidentimizning joriy yil 12-yanvardagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida bergan vazifalarni ijrosi doirasida viloyatda "Vatanga sodiq yoshlar" harbiy vatanparvarlik o'quv-yig'ini boshlandi. Favqulodda vaziyatlar vazirligining viloyatdagi boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida uning ilk ishtirokchilariga sertifikatlar topshirildi.

— Yig'inning birinchi navbatida Samarqand shahrining 1-sektori hududidan 100 nafar yosh ishtirok etdi, - deydi o'quv-yig'ini boshlig'i, polkovnik Alisher Teshaboyev. — Ular ikki kun davomida markazimizda yashab, maxsus o'quv dasturi bo'yicha o'qitildi. Jarayonda ma'naviy-ma'rifiy darslardan tashqari, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, qutqaruv tadbirlarini olib borish, harbiy va qutqaruv texnikalaridan foydalanish bo'yicha tushunchalar berildi. Qisqa muddatga bo'lsa-da, yoshlar o'zlarini harbiylar bilan bir jamoada his qilishdi.

— O'tgan yilning yoz oyilarida, mahallamizdagi xonadonlardan birola yong'in sodir bo'ldi, - deydi yig'in qatnashchisi T.Muxtorov. — Do'stlarim bilan voqea joyiga birinchi



yetib borib, uy ichida qulflanib qolgan bolalarni qutqarishga erishdik. Shunda qutqaruvchilik juda xavfli va qiyin kasbligini bildim. O'quv-yig'inida kasbga doir ko'proq narsalarni o'rganishga harakat qilayapmiz. Tasdiqlangan rejaga ko'ra, o'quv-yig'ini tadbirlari joriy yilning mart-sentabr oylari davomida o'tkaziladi. Unda viloyatimizda istiqomat qiluvchi 5100 nafar profilaktik hisobda turuvchi va tarbiyasi og'ir yoshlar qamrab olinishi belgilangan.

Ekologik standartlarga amal qiluvchi Yaponiya oʻz tarixida tezkor sanoatlashuvi yillarida havo ifloslanishi bilan bogʻliq xastaliklar avj olishining toʻrtta toʻlqinini boshdan kechirgan.

Hozirda global isish va iqlim oʻzgarishi xalqaro darajadagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Afsuski, bu muammo Oʻzbekistonni ham chetlab oʻtayotgani yoʻq. Mamlakatimizdagi ekologik holatning naqadar jiddiy ekanini Toshkent shahri havosining ifloslanib borayotgani, xalqaro reyting va indikatorlardan ham koʻrish mumkin. 2022-yilgi Jahon havo sifati hisobotiga koʻra, Oʻzbekiston havosi eng ifloslangan 20 ta davlatdan biri hisoblanib, havodagi qum-chang zarrachalari Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti meʼyorlaridan oʻrtacha 6,7 baravar yuqori hisoblanadi. Afsuski, havo sifati koʻrsatkichlarini onlayn uzatuvchi stansiyalar faqat Toshkent shahrida joylashgan va bu butun Oʻzbekiston boʻylab umumiy ekologik holatni baholash imkonini cheklaydi.

2023-yil 31-mayda Prezidentimizning “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan, 2023-yilning 1-dekabriga qadar tuman (shaharlar)da atmosfera havosi ifloslanishi monitoringini amalga oshirish uchun 347 ta avtomatlashgan stansiya xarid qilish va oʻrnatish belgilangandi, ammo mazkur farmonning ijro muddati 2024-yil 1-oktabrga qadar uzaytirildi.

Taassuf bilan taʼkidlash kerakki, atrof-muhit ifloslanishi va uning natijasida yuzaga keladigan tabiiy omillar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlariga, balki fuqarolar sogʻligʻiga ham salbiy taʼsir qiladi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, ekologik omillardan har yili 13 million kishi halok boʻlmoqda va shundan 6,5 million oʻlim havo ifloslanishi oqibatida yuz beradi. Bunda 90 foiz oʻlim koʻrsatkichi rivojlanayotgan davlatlar hissasiga toʻgʻri keladi.

Ekologik ifloslanish va aholi salomatligi bilan bogʻliq inqirozni Yaponiya davlati misolida tahlil qilib koʻraylik. Bu davlat Osiyoda ekologik holati barqaror va yuqori ekologik standartlarni joriy etish boʻyicha yetakchi hisoblanadi. Bunday natijaga erishish uchun mamlakat atrof-muhit ifloslanishi natijasida yuzaga kelgan jamoat sogʻligʻi bilan bogʻliq toʻrtta jiddiy inqirozni boshidan oʻtkazishiga toʻgʻri kelgan va ulardan uchtasi 1950-1960-yillardagi yuqori iqtisodiy oʻsish va sanoatlashish davriga toʻgʻri keldi. Yaponiyaning Miye prefekturasidagi Yokkaichi porti atrofida joylashgan, urushdan keyin xaroba boʻlib yotgan sobiq harbiy yoqilgʻi ombori hududi-da 1955-yilda neft-kimy o majmuasi qurish loyihasi tasdiqlandi. 1959-yildan toʻliq ishga tushgan majmuadan atmosfera chiqarilgan tashlanmalar tufayli hududdagi havo yuqori darajada ifloslana boshlaydi. Buning natijasida aholi orasida turli kasalliklar koʻpaydi, chiqindi suvlar yetarli ishlov berilmay dengizga quyilgani sababli, suv manbalari ifloslanib, baliqchilik sanoati inqirozga yuz tutadi.

1963-yilda ushbu hududda ikkinchi neft-kimy o majmuasi ishga tushiriladi. Bu paytga kelib ekologik

Ekologik inqirozning oldini olish uchun nima qilish kerak?



ifloslanish qoʻshni tuman va hududlarga ham yoyila boshlaydi hamda inqiroz tarixda “Yokkaichi astma” yoki “Yokkaichi ifloslanishi” nomlari bilan qoladi. Ifloslanish darajasini pasaytirish uchun korxonalar tomonidan 1965-yilda atmosfera chiqariladigan tashlanmalar minoralari balandligi oshiriladi. Bu chora bevosita yondosh hududlarga yetkaziladigan zarar koʻlamini kamaytirgan boʻlsa-da, umumiy holda ifloslanish hududi yanada kengayishiga olib keladi. Bu ekologik inqirozdan aholi salomatligi bilan bogʻliq salbiy taʼsir boshlanadi. Iqtisodiy oʻsishga ustuvorlik berilgani, davlat va mahalliy hokimiyat idoralari tomonidan ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga nisbatan yon bosilgani sababli, havo ifloslanishi va uning natijasida aholi salomatligi yomonlashuvi bevosita bogʻliqligi rad etiladi. Natijada hududdagi neft-kimy o korxonalari va hokimiyat idoralari tomonidan havo ifloslanishini kamaytirish yuzasidan yetarli darajada amaliy choralar koʻrish paysalga solinadi. Ifloslangan havodan zararlanish darajasini kamaytirish uchun shifokorlar tavsiyasi bilan aholi, ayniqsa bolalar uchun 1960-yillar oʻrtalarida maktablarda kuniga 5-6 martadan ogʻiz chayqash, niqob taqish tartibi joriy etiladi hamda havoni tozalovchi moslamalar oʻrnatiladi.

Nihoyat 5 yil davom etgan sud 1972-yilda daʼvogarlarning gʻalabasi bilan yakunlanadi. Lekin bu paytda ekologik vaziyat butunlay izdan chiqqan, qurbonlar ham kuzatilgan edi. Sud hukumat va ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga jiddiy talablarni qoʻyadi va bu bilan mamlakatning boshqa hududlarida ham ekologik talablar inobatga olina boshlaydi.

1966-69-yillarda 28 gektar maydonda shaharning Markaziy yashil bogʻi barpo etiladi. 1967-yil Miye prefekturasining atrof-muhit ifloslanishi ahvolini doimiy oʻrganish va tadqiq qilish uchun markaz tashkil etilgan boʻlsa, 1971-yilga kelib Yaponiya ekologiya vazirligi tashkil etiladi.

1990-yilda shahar hokimligi tomonidan atrof-muhit ifloslanishini oldini olishga qaratilgan texnologiyalarni boshqa rivojlanayotgan davlatlar ham foydalanishi uchun Ekologik texnologiyalar transferi markazi tashkil etiladi. 2015-yilda Yokkaichi ifloslanishi va kelajak avlodlardagi xabardorlikni oshirish boʻyicha ekologiya muzeyi tashkil etiladi. Koʻrilgan chora-tadbirlar natijasida atrof-muhit ifloslanishi va aholi salomatligi bilan bogʻliq yuzaga kelgan inqirozli holat toʻliq bartaraf etiladi. Bugungi kunda Yaponiyada, xususan, Yokkaichi shahrida ekologik holat ancha barqaror va atrof-muhit tozaligi boʻyicha yuqori natijalar qayd etib kelinmoqda. Jumladan, Ekologik samaradorlik indeksiga koʻra, Yaponiya umumiy 57,2 ball bilan 25-oʻrinni band etgan boʻlsa, havo tozaligi boʻyicha 78,9 ball bilan dunyo mamlakatlari ichida 13-oʻrinni egallaydi.

Maʼlumotlarga koʻra, yapon kompaniyalarining 76 foizi iqlim oʻzgarishi jiddiy masala ekanini qayd etib, issiqxona gazlarini kamaytirish uchun 85 foiz holatda energiyani tejash, 68 foiz holatda ekologik toza tovar va xizmatlardan foydalanish, 55 foiz holatda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oʻtish va 51 foiz holatda ishlab chiqarish jarayonini maqbullashtirish orqali erishib kelmoqda.

2023-yilda umumxalq muhokamasi orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga intilish kerakligi qayd etilgan. Konstitutsiyaning 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati toʻgʻrisidagi ishonchli axborotga ega boʻlish huquqiga egaligi mustahkamlangan. Biroq, keyingi vaqtlarda Toshkent shahrida havo ifloslanishi darajasi yuqoriligicha qolayotgan boʻlib, bu nafas yoʻllarining surunkali xastaliklariga olib kelishi mumkin. Oʻzbekistonda

havo ifloslanishi ekologik va aholi salomatligi bilan bogʻliq inqirozlar oldini olish uchun birinchidan, barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq barcha darajadagi qarorlarni qabul qilishda iqtisodiy va ekologik manfaatlar hamda insonning munosib yashashga boʻlgan huquqlari oʻrtasida muvozanatni taʼminlash lozim. Bunda ekologik tamoyillarni rad etish yoki ularga zid ravishda iqtisodiy manfaatlarga ustuvorlik berishdan voz kechish kerak.

Ikkinchidan, fuqarolarni atrof-muhit holati toʻgʻrisidagi ishonchli axborot bilan taʼminlash maqsadida ekologiyaga oid axborotlarning ochiqligi va oshkorligini taʼminlash va kengaytirish zarur. Jumladan, har bir korxona va tashkilot kesimida atrof tabiiy muhit holatiga zararli taʼsir qiladigan yoki nomaqbul tarzda taʼsir etishi mumkin boʻlgan obyektlar, atrof tabiiy muhitga tushadigan zararli moddalarning turlari va miqdori, chiqindilarning hajmlari va tarkibi, oʻzgarish dinamikasiga oid maʼlumotlar ochiqligini taʼminlash lozim.

Ayni paytda respublika boʻylab atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringini amalga oshiruvchi stansiyalarni tezroq ishga tushirish va real vaqt rejimida onlayn uzatishni yoʻlga qoʻyish, shuningdek, havo ifloslanishi fon monitoringidan kelib chiqib, aholi uchun oʻz salomatligini asrash uchun qanday ehtiyo choralarini koʻrish kerakligi boʻyicha tavsiyalarni ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan, rivojlangan davlatlarda korporativ hamjamiyatning masʼuliyatini oshirish uchun korporativ ijtimoiy masʼuliyat (KIM) tamoyillaridan keng foydalaniladi. Shu munosabat bilan milliy qonunchilikda, xususan, tadbirkorlik va ekologiyaga oid qonunchilikda KIM tamoyillarini mustahkamlash orqali korporativ sektorning ekologik masʼuliyatini oshirish zarurati bor. KIM tamoyillarining amalga tatbiq etilishini nazorat qilish fuqarolik jamiyati institutlari, OAV, faol isteʼmolchilar qatlami yordamida jamoatchilik nazorati mexanizmlari orqali amalga oshirish kerak.

Toʻrtinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrda qarorida keltirilgan ekologiyani yomonlashtirish darajasi yuqori va oʻrta boʻlgan korxonalar tomonidan atrof-muhitga zarar koʻlamini kamaytirish va oldini olish uchun ilgʻor ekologik tozalash texnologiya va filtrlarini majburiy qoʻllash tartibini joriy etish shart. Xuddi sement ishlab chiqarish tashkilotlari uchun belgilangani kabi mazkur korxona va tashkilotlarga tutash hududlarda stasionar kuzatish punktlari (postlar)ni oʻrnatish hamda fon monitoringini real vaqt rejimida onlayn uzatishni yoʻlga qoʻyishni taklif qilamiz.

Mazkur chora-tadbirlar maʼlum bir moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishni talab etsa-da, bunday xarajatlar ekologik masʼuliyatsizlik oqibatida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan jiddiy ekologik talafotlar va aholi sogʻligʻi bilan bogʻliq inqirozli holatlar natijasida yetkazilgan zararga qaraganda bir necha barobar arzon hisoblanadi.

E.QOBILOV,
Samarqand davlat universiteti
kafedra mudiri, professor.
Z.IZZATULLAYEV,
X.BOTIROV, kafedra professorlari.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va eʼlonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Islom PARDAYEV

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring boʻlimi boshligʻi Islom Rahmonovich Pardayev 66 yoshida vafot etdi.

I.Pardayev 1958-yil 19-iyunda Jizzax viloyati Baxmal tumanining Tangatopdi qishlogʻida tugʻildi. Oʻrta maktabni bitirib, Samarqand moliya texnikumida, keyinchalik ishlab chiqarishdan ajralmagan holda Samarqand kooperativ institutining iqtisodiyot fakultetida tahsil oldi.

U mehnat faoliyatini 1974-yilda Baxmal tumanidagi 14-oʻrta umumtaʼlim maktabi ish yurituvchisi lavozimidan boshlagan. 1977-1978-yillarda Jizzax viloyati sogʻliqni saqlash boʻlimi auditori, 1978-1980-yillarda harbiy xizmat-



doʻst Islom Pardayevning porloq xotirasi hamkasblari va doʻstlari qalbidan saqlanadi. Uning oila aʼzolari va yaqinlariga hamdardlik bildiramiz.

SHAROF RASHIDOV
NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI JAMOASI.

DAʼVOLAR BOʻLSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Gʻafforov Ulugʻbek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Nuritdinov Abduraxmon Nasritdinovichga (2023-yil 3-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Gʻafforov Ulugʻbek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yoʻli koʻchasi, 18-uy, 14-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Roʻziyeva Pardaoya (2011-yil 27-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy koʻchasi, 12-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Yakubov Xasan Negmatovichga (2019-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasida marhum Ataboyeva Difuza Qaharovnaga (2022-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Muhammadiev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasida marhum Berdimurodov Fayzullaga (2017-yil 9-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA SHARTNOMA ASOSIDA TANLOV EʼLON QILADI

- Oʻzbek tili va xorijiy til-lar kafedrasini mudiri - 1 nafar. Fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Tabiiy, ijtimoiy fanlar va jis-moniy madaniyat kafedrasini mudiri - 1 nafar. Fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasini mudiri - 1 nafar. Fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
- Tabiiy, ijtimoiy fanlar va jis-moniy madaniyat kafedrasini mudiri - 1 nafar. Fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
5. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri - 1 nafar. Fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
6. Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasini mudiri - 1 nafar. Fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;
7. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri - 1 nafar. Magistr diplomli mutaxassis;
8. Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasini mudiri - 1 nafar. Magistr diplomli mutaxassis;
9. Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasini mudiri - 1 nafar. Magistr diplomli mutaxassis;
10. Moliya, soliq va bank ishi kafedrasini mudiri - 1 nafar. Magistr diplomli mutaxassis.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- filial direktori nomiga ariza;
- maʼlumoti toʻgʻrisidagi diplomlardan nusxa;
- ilmiy ishlar roʻxati (3.4 shakl, tasdiqlangan holda);

- pasport nusxasi;

- maʼlumotnoma (obyektivka);

- nizom talabiga asosan pedagog xodim faoliyatini oʻrganish mezonini.

Nomzodlar zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi oʻzlashtirgan boʻlishi shart. Ilmiy daraja va unvonga ega boʻlish, chet tilini yaxshi oʻzlashtirganlik tanlovda ustunlik beradi.

Arizalar eʼlon chiqqan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Professorlar koʻchasi, 51-uy, "A" oʻquv binosi, 110-xona.

Telefon:

+99890-604-72-82.

ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Muhammadiev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasida marhum Axrorov Turaga (1980-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan

merosxoʻrlarning Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur koʻchasi, 158-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi Qulmurodova Nulufar Rashidovna yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 40907763980049) dumaloq muhri va burchak tamgʻasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

El suygan insonlarning yodi o'chmaydi

(Z. Mirzayevning “Qahrda ham mehr bor edi...” biografik essisini o'qiganda tug'ilgan mulohazalar)

“Robbing faqat Uning O'zigagina ibodat qilishini va ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi”.

Qur'oni karimning Isro surasi 23-oyat.

Inson umri o'Ichovli, bu olam esa foni. O'zbekiston Qahramoni, atoqli shoir **Erkin Vohidov** ta'biri bilan aytganda:

Zamon tez, fursat oz, har lahza ziqdir, Har lahza ziqiligi bilan qiziqdir. Hayot yo'li nadi? Qabr toshida, Ikki sana aro qisqa chiziqdir.

Shoir qabr toshidagi qisqa chiziqqa mengzagan inson umri minglab sa-hifalarga jo bo'ladigan voqealardan, tuyg'ular tug'yoniyu g'amli va baxtli kunlardan iborat. Inson sinovli dunyoning sinovlarini matonat bilan yenga olsa, odamlarga yaxshilik qilib yashasa va insoniyligini saqlab qolsa, bu dunyoni tark etganidan so'ng ham kishilar xotirasida yashab qoladi.

Halol mehnati va tug'ma qobiliyati bilan el-yurtida hurmat, obro' va sharaf topgan taniqli agronom, samimiy va kamtarin, fidoyi inson **Toyir Mirza-yev** xotirasiga bag'ishlangan **“Qahrda ham mehr bor edi...”** nomli biografik esseni mutolaa qilar ekanman, yaxshilar yodi unutilmasligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Toyir Mirzayev 1947-yilda Samarqand viloyati Bulung'ur (hozirgi Jomboy) tumanining Tut qishlog'ida tavallud topgan. Taqdirning sinovlarini qarangki, 9 yoshida opasi **Musharraf**, 16 yoshida padari **Hamdam ota** vafot etib, oilada validasi **Qurbonoy** onaning yolg'iz suyanchi bo'lib qolgan. Tabiatan ilmga chanqoq va izlanuvchan bo'lgan Toyir Mirzayev o'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlagan, ammo oiladagi qiyinchiliklar, yetishmovchiliklar sabab dorifununda o'qish uchun imkoniyati yetmagan. Bunga Qurbonoy onani qo'shnisining ho'kizi suzib, uzoq vaqt to'shakda yotib qolgani ham sabab bo'lgan. Shu ko'rgilik oqibatida onaizor umrining oxirigacha qaddini ko'tara olmaydigan bo'lib, bukhaygan holda yashagan.

Yosh bo'lishiga qaramay, oilaning butun yukini yelkasi-ga ortgan Toyir Mirzayev qishloqda mexanizator bo'lib ishlay boshlagan. Tug'ma qobiliyati, mehnatsevarligi va jonkuyarligi ortidan brigada boshlig'i darajasigacha ko'tarilgan.

Maktabni tamomlaganiga 11 yil to'lgan bo'lsa ham, ilmga intilib, oliy ma'lumotli bo'lish orzusi bilan yashagan Toyir Mirzayev 1976-yilda Samarqand qishloq xo'jalik institutiga o'qishga kirgan. 1981-yilda institutni muvaffaqiyatli tugatib, Jomboy tumanida xo'jalik bosh agronomi, kolxoz raisi, keyinchalik xo'jalik boshqaruvi raisi lavozimlarida mehnat qilgan.

Elning og'ir kunida yelkadosh, quvonchli damlarida davradosh bo'lib, xalqning hurmatini qozongan mehnatse-var va tanti, ochiqko'ngil va bag'rikeng, do'stparvar Toyir Mirzayev jufti haloli **Mahkamtosh aya** bilan birgalikda 7 nafar farzandni kamolga yetkazib, oliy ma'lumotli qilgan.

Ushbu biografik esse muallifi, atoqli davlat arbobi **Zoyir Mirzayev** shunday xotirlaydi: **“Otam: “Men yolg'iz o'g'lim edim, sizlar yonimga kirib, biz katta urug' bo'ldik”, deb ko'zlariga yosh olib gapirardilar. Ayniqsa, bu hol umrining so'nggi yillarida ko'p takrorlanadigan bo'ldi” (134-bet).**

Haqiqatan ham bugun Mirzayevlar avlodi katta sulolaga aylangan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist **Alisher Mardiyev** kitobga yozgan so'zboshisida ta'kidlaganidek: **“Hayoti davomida turmushning achchiq sinovlariga bardosh bera olgan, har qanday holatda ham insoniylik fazilatini yo'qotmasdan olg'a intilgan bu inson tumanda Mirzayevlarning ibratli sulolasini yaratishga muvaffaq bo'ldi.**

Ushbu kitobni farzandi Zoyir Toyirovichning o'zi yozib, nihoyatda tug'g'ri ish qilibdi. Chunki otasining o'z sulolasiga bergan ibratini u yaxshi anglab yetgan. Bundan tashqari, uy-muzey ham nafaqat sulola rahbari Toyir ayaning, balki Mirzayevlarning shonli tarixini ibrat qilib ko'rsatib turibdi” (6-bet).

Kitob yuksak samimiyat va mahorat bilan, nihoyatda ravon yozilgan. Muallif padari buzrukvorining umr yo'lini hikoya qilish asnosida o'zbek xalqining XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlaridagi tarixini ham haqqoniy va hayotiy misollar bilan yoritib bergan. Jumladan, o'tgan asrning 80-yillarida mamlakatimizda sodir bo'lgan “pax-ta ishi” fojialari xolislik bilan tasvirlanib, xalqimizga xos bukilmas iroda, sabr va matonat kabi yuksak insoniy tuyg'ular avvalo, Toyir Mirzayev timsolida, shuningdek,



esseda hikoya qilingan voqealar ishtirokchilari tiynatida tarannum etilgan.

Kitob to'rt qismga ajratilgan.

Birinchi qismda muallif ushbu yodnomani yozish uning uchun farzandlik burchi ekanini, kitob faqat hayotiy voqealarga asoslanganini alohida ta'kidlagan. Unda Toyir Mirzayevning ajdodlari, bolaligi, maktab davrlari, kasbiy faoliyati va oilaviy hayoti hikoya qilingan.

Ikkinchi qism **“Otamdan eshitganlarim”** deb nomlangan. Ushbu qismda muallif otasidan eshitgan va xotirasida o'chmas iz qoldirgan tarbiyaviy ahamiyatga ega 7 ta hikoyani keltirgan.

Uchinchi qismda muallif – Zoyir Mirzayevning otasi – Toyir ota haqidagi xotiralarini bayon etilgan. U padari buzrukvoridan o'z kuchiga ishonish, og'ir ahvolda qolganlarga yordam berish, kamtarlik, rejali ishlash, har bir ishda avvalo, o'zi ibrat ko'rsatish, qiyinchilikka sabr qila olish, oilada o'z o'rnini

topish, bolalar bilan muntazam shug'ullanish, bilim olish va hunar o'rganishga ishtiyoqli bo'lish, ro'zg'or ishlarini qila olish, odamlarni eshitish, har doim to'g'ri so'zni aytishni o'rganganini ta'kidlagan. **“Ko'zingga qara, ehtiyot bo'li, tilingga erk berma”, “Kun ko'rmagan kunduzi chiroq yoqarmish”, “Dangasa topaman desa, bahona topilaveradi”** kabi otasidan eshitgan pand-nasihatlarini ham kitobxon e'tiboriga havola qilgan. Ushbu qismda Mirzayevlar sulolasi shajarasi ham keltirilgan.

To'rtinchi qism **“Zamondoshlari xotiralaridan”** deb nomlanib, unda Toyir Mirzayevning farzandlari, kelin va nevaralari, shuningdek, uni shaxsan tanigan-bilgan insonlarning xotiralarini jamlangan. Xotiralarda Toyir otaning yuksak odamiylik fazilat-lari samimiyat bilan e'tirof etilgan.

Tarixiy va tarbiyaviy, badiiy va ma'rifiy jihatdan yuksak saviyada yozilgan ushbu biografik esse taniqli davlat arbobi – do'stimiz Zoyir Mirzayevning nosirlik iste'dodini ham namoyon etgan. Bu ayniqsa, Samarqandning shirali, o'zbekona shevasida so'zlashadigan asar qahramonlari tilining joniligidagi, ular tilidan xalq naqlari va iboralari o'rinni ishlatilganida yaqqol ko'zga tashlanadi. Kezi kelganda qo'llanilgan “chorput”, “mesh”, “tentak” kabi laqablar ham asarning xalqqa yaqin bo'lishiga hissa qo'shgan.

Toyir otaning hayotiy xulosalari uning tilidan sodda, shu bilan birga, ta'sirchan tarzda kitobxonga yetkazilgan. Masalan, Toyir ota onasi Qurbonoy dardmand bo'lib qolganida shunday xulosa chiqaradi: **“Agar orqangda suyaydiganing, ichi achib so'raydiganing bo'lmasa, hayot zarbalari seni ezib tashlaydi, hammaning so'ragani o'z yo'lga, lekin aka-uka va jigarlarning so'ragani boshqacha. Umuman, akang, ukang borligining o'zi katta baxt” (54-bet).**

Otasi bilan bog'liq voqealarni hikoya qilar ekan, muallif o'zining shaxsiy mulohazalarini ham zargarona tarzda bildirib o'tadi. Jumladan, nafaqadagi Toyir otaning hamsuhbat otaxonlar bilan gurunglarini tasvirlar ekan: **“Suhbatlarni eslasam, qarindoshlar o'rtasidagi samimiylik yo'qolib borayotganini, farzandlar otana holidan, opa-uka, qarindoshlar bir-birlari holidan xabar olishi, degan qadriyatlar unutilayotganini sezaman, asosiysi, yaqinlar holidan xabar olish, yo'qlash degan insoniy fazilatlar yo'qolib borayotganidan afsuslanaman, achinaman” (127-bet),** deya fikr bildirib, kitobxonni ham mushohadaga chorlaydi.

Muxtasar aytgandda, ushbu biografik esse halol mehnati, ilmga chanqoqligi va farzandlariga bergan oqilona tarbiyasi orqali el ichra aziz bo'lgan tabarruk inson – Toyir Mirzayevning ibratli yodnomasidir. Zero, shoir ta'kidlaganidek:

Ilm, yaxshilik, farzand qoladi odamzoddan, El suygan insonlarning yodi chiqmaydi yoddan.

Akmal SAIDOV, akademik.

1911-yilgi Shimoliy Afrika urushlari va 1912-yildagi Bolqon urushlaridan keyin yerlaridan mahrum bo'lgan usmoniylar imperiyasi Birinchi jahon urushida Germaniya, Avstriya-Vengriya va Bolgariya kabi ittifoqchi davlatlarga qo'shildi. Angliya va Fransiya harbiy kemalari usmoniylar imperiyasining poytaxti Istanbulni bosib olish, Bosfor va Chanoqqal'a bo'g'ozlarida hukmronlik qilish maqsadida 1915-yil 19-fevralda Chanoqqal'a bo'g'oziga hujum qildi. Chanoqqal'adan o'ta olmagan dushman qo'shinlari 18-martda katta hujumga o'tgan bo'lsa-da, bog'ozdan o'tib bo'lmashligini anglab, orqaga chekindi.

Turkiya madhiyasi muallifining onasi buxorolik

Dengiz orqali

bo'g'ozdan o'ta olmagan ittifoqchi kuchlar Chanoqqal'adagi Gelibolu yarim oroliga quruqlik orqali hujum qildi. Quruqlikdagi urushda mag'lubiyatga uchragan dushman qo'shinlari 1916-yil 9-yanvarda chekinishga majbur bo'ldi.

Usmoniylar imperiyasining poytaxti Istanbulga juda yaqin hududda sodir bo'lgan bu urush usmoniylar uchun hayot-mamot urushiga aylanib, mam-lakatning turli burchaklaridan kelgan askarlar Chanoqqal'ada shahid bo'ldilar. Shahid bo'lgan 211 ming askar orasida ixtiyoriy ravishda urushda qatnashgan litsey va universitet talabalari, ziyoli vatanparvarlar ko'p edi. Shahid bo'lgan talaba askarlar tufayli keyingi yillarda bitiruvchilari bo'lmagan litsey va universitet fakultetlari bor edi. Turk va jahon tarixida iz qoldirgan eng muhim voqealardan biri bo'lgan 1915-yil 18-martdagi Chanoqqal'a g'alabasi Turkiyada “18-mart Chanoqqal'a g'alabasi va shahidlarni xotirlash kuni” sifatida eslanadi. Bu urushlarda Turkiya Respublikasi davlat madhiyasi muallifi Mehmet Akif Ersoyning ham alohida xizmatlari bor. Bolqon urushi, Chanoqqal'a janglari va mustaqillik uru-



shida u turli lavozimlarda ishlagan.

Mehmet Akif Ersoy 1873-yil 20-dekabrda Istanbulda tug'ilgan. Onasi Buxorodan Anadoluga ko'chib kelgan bir oilaning qizi bo'lgan Emine Sharif Xonim, otasi esa Kosovoda tug'ilgan, Fotih masjidi madrasasining muallimlaridan biri bo'lgan Mehmet Tohir afandidir. O'rta ta'limni Fotih markaziy o'rta maktabida boshlagan Mehmet Akif turk, arab, fors va fransuz tillarini yaxshi bilgan. U 1893-yilda qishloq xo'jaligi va veterinariya bilim yurtini tamomlagan. U tahsil olgan va dars bergan maskanda bugun Istanbul Sabahattin Zaim universiteti faoliyat yuritadi. Adabiyotga

katta qiziqishi bo'lgan Mehmet Akif keyinchalik bu maktabda turk tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan, she'rlari “Servet-i Funun” jurnalida chop etilgan.

1921-yilda Anqaraga joylashgach, Milliy maorif vaziri Hamdulloh Suphi Beyning iltimosi bilan u Anqara hukumati tomonidan ochilgan Milliy madhiya tanlovida qatnashdi. Tanlovda ishtirok etgan asari 1921-yil 12-mart kuni parlamentda Hamdulloh Suphi Bey tomonidan o'qib eshittirilgandan so'ng Davlat madhiyasi sifatida qabul qilindi. Akif mukofot sifatida berilgan 500 lirani xayriya tashkilotiga ehson qildi. Mehmet Akif 1936-yil 27-dekabrda Istanbulda vafot etdi. Uning eng muhim ikki asari “Istiqloq madhiyasi” va she'rlarini yetti kitobga jamlagan “Safahot” kitobini TIKa homiyligida Miraziz A'zam o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Koreyaliklar kitob tuhfa qilishdi

O'zbekiston Madaniy meros agentligi, Janubiy Koreya Madaniy meros jamg'armasi, Samarqanddagi oliy ta'lim muassasalari hamda soha mutaxassislari hamkorligida viloyatdagi tarixiy obidalarni asrab-avaylash va turizm markaziga aylantirish bo'yicha hamkorlikda ish olib borilmoqda.

Xususan, Janubiy Koreyaning Madaniy meros jamg'armasi tomonidan ODA (Official Development Assistance) dasturi asosida 2022-2026-yil-larga mo'ljallangan “Samarqand viloyatining tarixiy-madaniy turizm salohiyatini oshirish” loyihasi amalga oshirilyapti.

Yaqinda loyiha doirasida Samarqand shahridagi “Afrosiyob” muzeyining restavratsiya ishlari uchun 290 ming AQSh dollaridan ziyod mablag' ajratildi. Ushbu mablag'ga muzeyning birinchi qavati (islomgacha bo'lgan davr Samarqand tarixi) ekspozitsiyasi yangidan zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi, ko'rgazmalar zali, videozal va yo'laklar yangilandi. Ikkinchi qavatning shifti va tomi ham qayta ta'mirlandi.

Viloyatdagi moddiy madaniy meros obidalarini Koreya tajribasi asosida restavratsiya va konservatsiya qilish, o'qituvchi hamda talabalar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Koreya madaniy meros fondi tomonidan “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga 468 nomdagi 500 ga yaqin kitob topshirildi.

Ikki yildan buyon Samarqand arxeologiya instituti hamda “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti o'qituvchi va talabalari koreyalik mutaxassislar hamkorligida Samarqanddagi madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilib kelmoqda, - deydi Koreya madaniy merosdan foydalanish boshqarmasi direktori Chae Su Xi. – Ushbu hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida koreys va ingliz tillarida chop etilgan ilmiy to'plam, qo'llanma, monografiya hamda sohaga oid turli adabiyotlarni turizm universitetiga topshirdik. Mazkur kitoblarni soha mutaxassislari, qolaversa, talabalar uchun turizmni rivojlantirish va yo'qolib borayotgan madaniy meros obyektlarini asrab



qolishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

- Universitetimizda 16 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 6 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda, - deydi “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining birinchi prorektori Jo'li-boy Eltzarov. – Bakalavriat va magistratura yo'nalishida 30 nafarga yaqin talaba koreys tili va madaniyatini o'rganmoqda. Koreya madaniy meros jamg'armasining “Samarqand viloyatining tarixiy-madaniy turizm salohiyatini oshirish” loyihasi asosida besh yillik hamkorlik shartnomasi imzolangan bo'lib, turizmni rivojlantirish va madaniy meros obidalarini himoya qilish bo'yicha o'qituvchi va talabalarimiz har yili tajriba almashyapti, birgalikda ishlayapti. Kutubxonamiz fondiga ushbu mamlakat tajribasiga asoslangan yangi ilmiy kitoblar-ni topshirilishi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlaydi.

F.RO'ZIBOYEV.

SHU OYDA
TAVALLUD
TOPGANLAR

18-MART

Buvigul BERDIYEVA – 1954-yilda Jomboy tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

19-MART

Hoji Muin Shukrullo o'g'li (1883-1942) Samarqand shahrida tug'ilgan. Jadid, ma'rifatparvar shoir, jurnalist.

25-MART

Ahmad SHOYMURODOV – (1936-2020) Samarqandda tug'ilgan. Haykaltarosh. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

28-MART

Saidmahsud RAZZOQOV – 1949-yilda Jomboy tumanida tug'ilgan. Texnika fanlari doktori.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 706 nusxada chop etildi. Buyurtma 145. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda